



**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA
AGRESSIYA: UNING SABAB VA YECHIMLARI**

AMIROVA NODIRA SHAMSHIYEVNA

*Alfraganus Universiteti, Pedagogika fakulteti, Psixologiya (faoliyat turlari
) yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar:

Zamira Bilolova Baxtiyarovna

“Alfraganus Universiteti”

Pedagogika fakulteti, Psixologiya fanlari doktori, Phd

Annotasiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda uchraydigan psixologik holat: agressiya va uning sabablari, psixologik, ijtimoiy va biologik omillar asosida tahlil qilinadi. Hamda bu holatlarning oldini olish va yengillashtirish bo'yicha psixologik tavsiyalar ham beriladi.*

Kirish so'zlar: *agressiya, Mixail Labkovskiy, bolalar, travma, psixologik holatlar, emotsiya, neyronlar, aybdorlik hissi, stress, jizzakilik.*

Insonning oltin bolalik onlari ayni maktabgacha talim yoshlariga yani 7 yoshgacha bo'lgan davrda kechadi. Bu davrda bola butun dunyo haqidagi ilk taassurotlarini, bilish jarayonlarini, ilk his tuyg'ular, yaqinlari bilan munosabatga kirishish jarayonlarini boshdan kechiradi.

Miyada nerv to'qimalarining muvaffaqiyatli bog'lanishlari, bilish jarayonlarining asosi bo'lgan neyronlarning paydo bo'lishi va bir biriga bog'lanishining asosiy qismi ham shu oraliqda yuzaga keladi. Bu jarayonlar bolaning atrof muhitga reaksiyasini belgilaydi. Jumladan, **Yig'lash** orqali bola o'z ehtiyojlarini qondirishni bildirsa, **Kulgi** yoki **xursandchilik** bolada hammasi joyida ekanligini bildiradi.

Shu va shu kabi javob reaksiyalarini har bir ota ona o'z farzandida tushunadi va shunga yarasha munosabatda bo'ladi.



Ammo, ba'zida, go'yoki xammasi joyida bo'lsada, shunday psixologik holatlar kuzatiladiki, uni na bolaning o'zi tushunadi, na ota ona. Sababsiz injiqliklar, oxiri yo'q xarxashalar, atrofdagilarni yomon ko'rish va unga jaxl bildirish, har narsaga bildirilgan sababsiz yig'ilar oxir oqibat onaning sabr kosasini to'ldiradi va bir ikki shapaloq bilan tugaydi. Ana keyin davomida kichkintoylar battar yig'lagan, ona jaxl otiga mingan va qalbida aybdorlik hissi ham uyg'ongan. Bolaning yig'isi esa hali xam olamni buzadi. Aybdorlik hissi olov bo'lib kuydurayotgan ona darrov o'zini qo'lga olgan va bolani bag'riga bosib ovuta boshlagan. Onaning o'zgarganini ko'rgan bola endi onani ustidan manipulyatsiya qo'llay boshlaydi... Barchamizga tanish holat. Hammamiz ham bu jarayonlardan o'tganmiz. Bolalarcha qalbimiz bilan atrof muhitga, ota onamizga norozilikni his qilganmiz. Go'yoki bizni sevishmaydi va tushunishmaydi. Bunga javoban esa ularga jaxl bildiramiz... Bolalik xotiralarini eslab oldik. Endi mavzuni o'rgansak, xo'sh, bolalardagi bu holat nima? va u qanday paydo bo'ladi? Quyida uing sabab va yechimlarini ko'rib chiqamiz.

Psixologiyada agressiya deganda, boshqalarni o'ziga bo'ysindirish yoki ularning ustidan hukmronlik qilish maqsadida, fantaziyasida (xayol surish) yoki real xulq atvorda namoyon bo'ladigan tendensiyaning (intilishni) tushunadilar.

Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko'pchilik o'zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o'zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga olib keladi.¹

¹ Muxtasam Sulaymonov
Samarqand davlat universiteti
psixologiya va ijtimoiy munosabatlar fakulteti o'qituvchisi



Shu o'rinda savol tug'iladi: xo'sh , bu agressiya mitti bolachalarda qanday paydo bo'ldi? Axir ularda dunyoni bilish jarayonlari endi boshlanmaganmidi? Ular buni qachon o'rganishdi ?

Bugungi kun psixologiyasi muammoni yechimida- uning ildiziga e'tibor qaratmoqda. Ya'ni bu- bolaning biologik paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Ya'ni , onaning homiladorlik davri qanchalik osuda yoki tashvishli kechgani, nimalarni his qilgani bolaning ham xarakter hususiyatlarida namoyon bo'lishi bugun hech kimga sir emas. Rus psixologi va pedagogi Mixail Labkovskiy o'zining “Люблю и понимаю ”(Sevaman va tushunaman) kitobida shunday dep yozadi: “Agressiv harakat – to'laqonli biologik, evolyutsiya bilan shartlangan, va yashab qolish uchun kerak . Bizning ajdodlarimiz resurslar va qarama qarshi jins vakillari e'tibori uchun raqobatga majbur bo'lishgan.Raqobat qila olmaysanmi, chetga o't va boshqalarning to'daning egasi bo'lishiga xalaqit berma. Evolyutsiya o'z navbatida sensiz ham davom etadi .

Bizda hozir ularday quyosh ostidan joy talashishga zarurat yo'q, ammo ijtimoiy normalar va tarbiya masalalari o'zimizni qo'lga olishga va jaxlimizni bosishga tarbiyalaydi. Lekin ming yillar o'tishiga qaramay insoniyat taraqqiyot tarixi o'zgarsada, shu o'tgan vaqt mobaynida u hech qayerga yo'qolmadi, demak, u har birimizning qonimizda bor va u doim biz bilan birga. U har birimizda oz yoki ko'p miqdorda va har birimiz uni har xil aks ettiramiz.

Nega kichkina bolachalarda agressiyani ko'ramiz? Balki bu quyidagi holatlar bilan bog'liqdir:

- nasliy;
- aynan bir psixik holat;
- oilada qabul qilingan agressiv tarbiya turi;
- travma, stress va jizzakilikni keltirib chiqargan holatlar.

Odatda, tanqid qilingan, eshitilmagan, xafa qilingan, kaltaklangan, majburlangan bolalar agressiv bo'ladilar. Bu jarayonlar ko'krak yoshida ham, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda ya'ni 5-7 yoshlarda ham kechishi mumkin.



Bu jarayonlar uyda kechmasligi ham mumkin, ammo ba'zi bog'chalar bu vazifa bilan "juda zo'r amallashyapti". Mexanizm juda oddiy : bola oldin bu agressiyani faqat oladi,"to'yinadi" keyin "beradi", masalan kim kuchsizroq bo'lsa.

Agar sizning bolangizda agressiv bo'lishiga hech qanday sabab bo'lmasa, unda sababni bolalar jamoasidan izlang.

Bundan tashqari bolalar o'z agressiyalarini nazorat qilolmasliklari tabiiy holat

(buni xatto ba'zida kattalar ham eplolmaydiku). Sabablari har xil bo'lishi mumkin, birinchi o'rinda fiziologik: Ko'tarilgan ichki bosim, tug'ruqdan keyin orttirilgan travma. Aniq sababni aniqlash va o'rganish kerak.

Xulosa o'rnida, Bolalar xulq atvorini korreksiya qilish mumkinligini aytib o'tishim lozim. Bolalar psixologiga murojaat qilish va bolada emotsiyalarini boshqarishga xizmat qiladigan iroda kuchini tarbiyalaydigan o'yinli mashqlarni yo'lga qo'yish lozim. Muhimi, o'z vaqtida hissiy buzilishga e'tibor qaratish va tezda uning yechimini izlamoq lozim"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Mixail Labkovskiy "Люблю и понимаю" maskva 2024

Sog'inov N.A. Umumiy Psixologiya Toshkent 2023

Мухтасам Сулаймонов "Агрессия" 2024

Самарқанд давлат университети.